



AYRIM TOIFADAGI OILALARGA YER UCHASTKALARINI AJRATILISHI - BUGUNGI KUN TALABI

Xolmuminov Oybek Jumayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Fuqaroviy-huquqiy
fanlar kafedrası dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13371336>

ARTICLE INFO

Received: 10th August 2024
Accepted: 12th August 2024
Published: 14th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

Mamlakatimizda har bir fuqarolarni shuningdek, har bir xonadonni va har bir oilalarni qo'llab-quvvatlash kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish hamda uni bajarishi davlat siyosati darajasida e'tibor berilayotganligi barchamizga ma'lum. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, fuqarolarni huquqlari va qonun bilan qo'riqlanayotgan manfaatlarini himoya qilishda avvallo davlatimiz tomonidan taqdim etilayotgan imtiyozlar va preferensiyalar huquq sub'ektlariga juda katta huquqlarni, imkoniyatlarni beradi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-modda¹si 3-qismi mazmunida "Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi" nomli konstitutsiyaviy-huquqiy norma belgilanganligi, 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son qonuni²ning 5-moddasi mazmunida aynan "Yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish" yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida qayd etilgan. Biroq, yoshlar uchun yerga oid munosabatlari alohida qayd etilmagan. Shu asnoda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 noyabrdagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq ho'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-20-son³ va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 709-son qarorlari⁴ga asosan g'alla ekinlaridan qicqargan va tuman hokimi zahirasiidagi yer

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/6445145>. (Murojaat vaqti: 20.05.2024 y.).

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016. - № 37. - 426-m. <https://lex.uz/docs/3026246>. (Murojaat vaqti: 20.05.2024 y.).

³ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021 y., 07/21/20/1091-son. <https://lex.uz/docs/5739727>. (Murojaat vaqti: 21.05.2024 y.).

⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021 y., 09/21/709/1090-son. <https://lex.uz/docs/5739815>. (Murojaat vaqti: 21.05.2024 y.).

maydonlarni fuqarolarga 0,10 gektardan 1 gektargacha bo'lgan o'lchamlarda dehqon xo'jaligi qilish uchun ochiq elektron tanlov orqali 10 yil muddatga ijaraga ajratilishini nazarda tutadi. Ta'kidlash kerakki, yoshlarni samarali yo'llar orqali band qilish muhim ahamiyatga ega doim muhim o'rin egallaganligi bois, vakolatli davlat va nodavlat organlari o'z faoliyatini yanada takomillashtirish va bugungi kun talablariga to'liq mos keladigan jarayonni, faoliyatni amaliyotga joriy etish orqali asosan aholining yoshlar qatlamiga munosib shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ushbu yo'nalishni har yili takomillashtirib borayotganligi ham juda katta ahamiyatga egadir.

Amaldagi Yer kodeksining 55-moddasi 1-qismi mazmuni⁵da: Dehqon xo'jaligi yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkalari berishda ya'ni, oilali va qishloq joylarda kamida uch yil mobaynida yashab turgan fuqarolarga, shuningdek tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuman (shahar) kengashining birgalikda berilgan tavsiyasiga ega bo'lgan yosh fuqarolarga dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga yer uchastkasi sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda 0,5 gektargacha o'lchamda, cho'l va sahro mintaqasida esa sug'orilmaydigan yaylovlardan 1 gektargacha o'lchamda beriladi. Qishloq joylarda kamida uch yil yashab turganlik to'g'risidagi talab yangi sug'oriladigan yer massivlari uchun qo'llanilmaydi. Bunda dehqon xo'jaligi yuritish uchun beriladigan yer uchastkasining o'lchami yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga ilgari berilgan yoki beriladigan yer uchastkasini hisobga olgan holda aniqlanadi" degan huquqiy norma belgilab berilgan. Demak, yoshlarga yer ajratishning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari sanab o'tishimiz mumkin. Jumladan, *birinchidan*, bunda yoshlarga ma'lum bir faoliyat bir shug'ullanish huquqi berilganligi; *ikkinchidan*, yoshlarni oilaviy daromadlarini oshishiga xizmat qiluvchi muhim huquqiy asoslar paydo bo'layotganligi;

uchinchidan, davlat zahira yer fondi o'zlashtirilgan holda, boshqa toifalar ya'ni, qishloq xo'jaligi yerlari (sug'uroladigan va sug'orilmadigan (lalimi), haydaladigan yerlar) hamda aholi punktlari yerlari toifalari maydonlari ortishiga erishilayotganligi;

to'rtinchidan, yoshlarni band qiluvchi yangi davlat xizmatlaridan biri vujudga kelganligi;

beshinchidan, yoshlarni mamlakatimiz ma'muriy hududida bo'lishini ta'minlagan holda ishsizlikni kamaytirish chora-tadbirlaridan biri ekanligi va ularni ertangi kunga bo'lgan ishonchiga erishish kabilar bilan izohlash mumkin.

Alohida qayd etish lozimki, 2021 yil 27 yanvar kuni o'tkazilgan videosellektor yig'ilishda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev: "Har bir fermer 2 gektardan yerini yarim gektardan qilib, 4 nafar yoshlarga bo'lib bersin. Ular bu yerga istagan ekinini eksin, hech kim aralashmaydi. Buni **"inqilobiy qaror"** deb atagani juda katta yutuqlarimiz biridir! O'tgan yili fermerlik uchun yer olish bo'yicha murojaat qilgan 14 ming yoshdan atigi 3000 nafariga yer uchastkasi berilgan"⁶ ligi ham monitoring qilinganligi bejiz emas albatta.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 dekabrda "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlari hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo'shimcha uy-joy qurish uchun garovsiz kredit ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"⁷gi 637-son qarori⁷ga ko'ra, "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlari

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998. - № 5-6. - 82-m. <https://lex.uz/docs/152653>. (Murojaat vaqti: 24.05.2024 y.).

⁶ <https://uza.uz/ru/posts/237524>. (Murojaat vaqti: 24.05.2024 y.).

⁷ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.10.2021 y., 09/21/637/0953-son. <https://lex.uz/docs/5676240>. (Murojaat vaqti: 25.05.2024 y.).

hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yangi turmush qurgan yoshlarning yakka tartibdagi xonadonida qo‘shimcha uy-joy qurish uchun garovsiz kredit ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Nizom tasdiqlandi. Mazkur Nizomga asosan Yer uchastkalarida belgilangan tartibda kelishilgan loyiha asosida hamda tuman (shahar) aholi punktlari Bosh rejasi va shaharsozlik normalariga mos holda pudrat tashkiloti yoki o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan yollanma ishchilar bilan o‘z xonadonida yakka tartibda qo‘shimcha uy-joy qurish bo‘yicha shartnomani imzolaydi va ularga yakka tartibdagi xonadonda qo‘shimcha uy-joyni qurish ishlari uchun berilishi mumkin bo‘lgan kreditning eng ko‘p miqdori 33 million so‘mdan oshib ketmasligi lozimligi qayd etildi.

Bu boradagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-son qarori⁸ va ushbu qarorga “Qishloq ho‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibi takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi 237-son qarori⁹ga asosan kiritilgan o‘zgarishga ko‘ra, “2024 yil 1 martdan boshlab zahiraga qaytarilgan yoki yangi o‘zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlari dehqon xo‘jaligi tashkil etgan holda sabzavotchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish kabi loyihalarni amalga oshirish uchun dehqonchilik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga 0,10 gektar dan 1 gektargacha bo‘lgan o‘lchamlarda belgilangan tartibda elektron onlayn-auksion savdolari orqali 10 yilga ijaraga beriladi” degan huquqiy normalar kiritilganligi ham respublikamizda istiqomat qilayotgan oilalarni qo‘llab-quvvatlashga oid amaliy va yangi huquqiy mexanizm bo‘ldi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyundagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qarori¹⁰ bilan “Yoshlar daftari”ni yuritish orqali yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risida Nizomi” tasdiqlandi. Mazkur Nizomning 23-bandiga ko‘ra, tomorqa yer egasi bo‘lgan yoki dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun, shu jumladan, yangi o‘zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlarida 0,1 gektardan 1 gektargacha yer maydoni ajratib berilgan yoshlarga urug‘lik va ko‘chatlar xarid qilish uchun BHMning 8 baravarigacha miqdorda hokim yordamchisining ijobiy tavsiyasi asosida “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya ajratilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024 yil 5 apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta‘minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-153-son qarorining qabul qilinganligi va amalda tadbir etilganligi esa, mamlakatimizdagi qariyb to‘qqiz milliondan ziyod oilalarning a‘zosi bo‘lgan yoshlarning tarixiy orzusi bo‘ldi desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Shu o‘rindan alohida ta‘kidlash mumkin-ki, hech bir davlatda yoshlarni bu darajada qo‘llab-quvvatlashning mexanizmlariga bu darajada kirilmaganligini va ularga bu darajada imkoniyatlar berilmagan bo‘lsa kerak. Demak, ushbu Prezident qarori asosida yoshlarga quyidagi imkoniyatlar berildi. Xususan,

⁸ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022 y., 09/22/145/0253-son. <https://old.lex.uz/docs/5932671>. (Murojaat vaqti: 25.05.2024 y.).

⁹ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 27.04.2024 y., 09/24/237/0303-son. <https://old.lex.uz/docs/6899664>. (Murojaat vaqti: 25.05.2024 y.).

¹⁰ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022 y., 09/22/312/0493-son. <https://lex.uz/docs/6051791>. (Murojaat vaqti: 27.05.2024 y.).

- 1) Yer maydonlarini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari g'oliblariga yer uchastkasi narxini 10 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashi mumkinligi;
- 2) zakalat puli bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida (340.000 so'm) belgilanishi;
- 3) talabgorlar yoshlarga sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko'katlar, makkajo'xori doni, dukkakli va moyli ekinlar yetishtirishga sug'oriladigan ekin maydonlari ijaraga berilishi;
- 4) talabgorlar yoshlarga bog'dorchilik-uzumchilik yo'nalishlari uchun ko'p yillik daraxtzorlar yoki samarasiz bog'lar yer maydonlari ijaraga berilishi;
- 5) talabgorlar yoshlarga dorivor o'simliklar yetishtirish, chorvachilik yo'nalishlari uchun chorva ozuqasi ekinlarini yetishtirishga mo'ljallangan, lalmi, bo'z, yaylov va yangi o'zlashtirilgan yer maydonlari 30 yil muddatgacha kichik lotlarda **"bir massiv - bir mahsulot"** tamoyili asosida ijaraga berilishi;
- 6) talabgorlarga ajratiladigan yer maydonlari o'lchamlari "Mahalla yettiligi" taklifiga ko'ra aniqlanishi;
- 7) "Mahalla yettiligi" tomonidan talabgorlarga "E-auksion" elektron savdo platformasiga joylashtiriladigan yer maydonlari bo'yicha kichik lotlarni majburiy birlashtirishga yo'l qo'yilmasligi;
- 8) ishni yaxshi tashkil qiladigan tadbirkorlar, mahsulotni qayta ishlovchi yoki eksport qiluvchilarga "Yoshlar daftari"dagi bir nechta yoshlarning bandligini ta'minlash majburiyati bilan yaxlit konturdagi yer maydonlarini berishga ruxsat berilishi;
- 9) yer maydonlarini elektron onlayn auksion savdolari orqali ijaraga olgan yoshlar "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"dan chiqarilmasligi va ular uchun qonunchilikda belgilangan barcha imtiyoz va preferensiyalar saqlab qolinishi;
- 10) talabgorlar tomonidan yer maydonlarida yetishtiriladigan ekin turlari va ular miqdorining doimiy monitoringi Yoshlar ishlari agentligining "Yosh fermerlar" platformasi orqali amalga oshirilishi;
- 11) 2024 yilda tuman hokimliklari zaxirasidagi 60 ming gektar yer maydonini elektron onlayn auksion orqali ijaraga oluvchi yoshlarning o'n uchta toifasi aniq belgilanganligi;
- 12) Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish va 2024 yilda qo'shimcha qaryib 218 ming gektar yer maydonini yangidan o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish maqsadida chet el davlatlarining pul mablag'laridan samarali va uzoqni ko'zlagan maqsadidagi ustuvor vazifalar qayd etilganligi ham aynan yoshlar va tegishli oila a'zolarining oylik, yillik va hayotiy daromadlarini oshirishga zamin bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan va tegishli bandlaridan foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar mazmunidan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarini sanab o'tish mumkin. Jumladan, *Birinchidan*, 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son qonunining 5-moddasi mazmunida aynan *"Yoshlarga va aynan yosh oilalarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlashning muntazam hamda uluzsiz ravishda amalga oshirib borish"* nomli davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida qayd etish lozim;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini 537-moddasi¹¹ mazmunida yer uchastkalari ham mulk ijarasining ob'ekti sifatida belgilangan bo'lsa-da, biroq uning ijaraga berishda aniq emas, balki havola etuvchi huquqiy normalar ko'zga tashlanadi. Xullas, 537-moddasi mazmunida: *"Er uchastkalarini toifalaridan kelib (shartnomalar ob'ektini nazarda tutuvchilari albatta) aholi punktlari yerlarida joylashgan yosh oilalar va yoshlarga milliy qonunchilikda belgilangan tartibda va shartlarda berilgan yer uchastkalarining ijara beriladi"* deb nomlangan huquqiy normani kiritilishi uning fuqaroviy-huquqiy maqomini

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996. - № 11-12. - 1-m. <https://lex.uz/docs/180552#184363>. (Murojaat vaqti: 27.05.2024 y.)

belgilashda muhim huquqiy asosini belgilaydi va bunday toifadagi mulkdorlarning ishonchiga erishiladi;

Uchinchidan, huquqni qo'llashda yoshlar va yosh oilalarga berilgan yer uchastkalari bilan bog'liq nizoli ishlarni sudlar va boshqa vakolatli davlat organlar tomonidan huquqiy baho berilishida yoki malakalashda muhim huquqiy asos bo'lishi va huquqiy munosabatlar o'rtasida ma'lum bir chegara va to'siq mavjudligini belgilab turadi.

